

TILVA ADABIYOT

9/2025

TA'LIMI

SIM-SIM
TO'RT BULUNG

Ogahiy
og'ochi

20
kunda
milliy sertifikat


Shukur Qurbon

ORANGIZDA

men ham borman,

SHOIR
KIM? **DAMLAR**

mundarija



Yangiliklar 4

IJOD MAKTABLARI

Shahobiddin RASULOV

Ogahiy og'ochi atrofida yuzlab
navnihollar unmoqda. 6

TARAQQIYOT TAROZISI

Umid XO'JAMQULOV

Ona tili ta'limini sun'iy intellekt
asosida modernizatsiyalash
imkoniyatlari 12

JADID LUG'ATI


Jo'ra XUDOYBERDIYEV

Behbudiy: rus harfi musulmon
millatiga jabriy bo'lmasun 18

ONA TILI TA'LIMINI

**asosida
modernizatsiyalash
imkoniyatlari**

Shoir kim?



SHOIR KIM?

Javlon JOVLIYEV

Baliqchilik Robinson 24

SIM-SIM


Anvar BO'RONOV

To'rt bulung: bo'sag'adan
boshlangan ochun 36

To'rt bulung:



*bo'sag'adan
boshlangan ochun*



**RUS HAREI
MUSULMON
MILLATIG'A
JABRIY BO'LMASUN**

METODIK TAVSIYA

Yulduz KARIMOVA

30 kunda milliy sertifikat olish
metodikasi. 42

ILMIY TADQIQOT

Ma'murjon SAIDXONOV

Muloqotda sukutning o'рни 46

ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА

И ЛИТЕРАТУРЫ 49

ПРЕПОДАВАНИЕ

№9/2025

ПРЕПОДАВАНИЕ языка и литературы

ЯЗЫКОЗНАНИЕ
Гуликом Акрамова
Синтаксические особенности и
динамика научного стиля 57

**НОБЕЛЕВСКИЕ ЛАУРЕАТЫ
ПО ЛИТЕРАТУРЕ 2025 ГОДА**
Антоний Леонидович
Питч, абсурд, гротеск 59

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Сервер Исмаилов
Образ героя во французском эпосе:
эволюция от «Песни о Роланде»
до позднесредневековых
шансон де жести 67

Факридин Абдурахманов
Искаженные прилагательные
как фактор языковой динамики в
современном русском языке 70

МЕТОДИКА. ОПЫТ
Замира Нурманова
Рассказ Уильяма Уайлдерсона
«Памелы» 50

В ПОМОЩЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЮ
Кодиржон Носиров
Об узбекской и русской газели и
рубайи 53

Замира Усмонова
Исследование стилистики
словообразования в четырех
функциональных стилях 73

В МИРЕ КНИГ
Зельма Аманова
Учебная литература нового
поколения для филологических
направлений 77

НАРОДЫ. ЯЗЫКИ. КУЛЬТУРА
Беккенбай Раматов
Из опыта работы с
каракалпакскими
этнолингвистическими
единицами культуры 63

Зарина Аманова
Особенности символов и их
функционирование с точки зрения
лингвокультурологии 65

WWW.TILVAADABIYOT.UZ 49

ONA TILI TA'LIMINI

SUN'YI INTELLEKT

asosida
modernizatsiyalash
imkoniyatlari

2- maqola



Umid XO'JAMQULOV,
pedagogika fanlari doktori, professor

Jahon ta'limi raqamli texnologiyalar ta'sirida tez o'zgarib bormoqda. Sun'iy intellekt (SI) ta'lim jarayonini takomillashtirishning yangi imkoniyatlarini ochdi. U ma'lumotni tahlil qilish, xatoni ko'rsatish, o'quvchining ehtiyojiga mos mashq taklif etishga, o'qitishni samarali, interfaol hamda individual tashkil etishga ko'maklashadi. Biroq sun'iy intellekt faqat vosita bo'lib, ta'limning qalb, ruh va ma'naviyatga aloqador jihatlarini insonning o'zi to'ldirishi, ongli ravishda boshqarishi zarur. Xususan, ona tili ta'limida adabiy nutq me'yorlarini o'rganish, grammatika qoidalarini anglash, insho va ijodiy matn yozish ko'nikmalarini shakllantirishda SI dan unumli foydalanish bugungi kunda dolzarblashmoqda.

Raqamli pedagogika – texnologik vositalar ma'naviy-axloqiy madaniyatni mustahkamlashda insonning o'rnini to'liq egallay olmaydi. Bu yo'nalishda “raqamli axloq” va “sun'iy intellekt gigiyenasi” kabi tushunchalar ta'lim siyosati va o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. SI o'quv jarayonida tahlilchi, yordamchi va rivojlantiruvchi vosita sifatida inson tafakkuri va madaniyatiga tayangan holda qo'llanishi kerak.




**Sun'iy intellektni joriy etish
bu faqat texnik qadamlardan
iborat mexanik jarayon emas,
butun ta'lim madaniyatini
yangilashni anglatuvchi
murakkab voqelikdir.**

Ona tili ta'limining eng muhim vazifalaridan biri – o'quvchilarda to'g'ri va adabiy-madaniy nutqni shakllantirish. Bu jarayon faqat qoidalarini yodlatish bilan emas, hayotiy misollar, interfaol mashq va individual tahlillar asosida amalga oshadi. SI matnlardagi orfografik, uslubiy yoki grammatik xatolarni avtomatik tarzda aniqlaydi, transliteratsiya va sinonim takliflarini taqdim etadi hamda o'quvchilarning nutq madaniyatini mustaqil takomillashtirishiga sharoit yaratadi.


O'quvchining matn bilan ongli ishlashi, uning mazmun-maqсадini anglab, uslubiy xususiyatlarini ajrata olishi muhim kompetensiya hisoblanadi. SI texnologiyalari esa matnlarni nutq uslubiga ko'ra avtomatik tasniflaydi, matndagi leksik birliklar, jumla tuzilishi, ifoda ruhi va maqsadni tahlil qilib, uning qaysi uslubga mansubligini tez va to'g'ri aniqlaydi. O'quvchiga ushbu holatning mohiyatini tushuntiradi, matndagi uslubiy farqlar borasida muayyan nazariy bilimlarni taqdim etadi. Shuningdek, *"Sun'iy intellekt vositalari o'quvchiga xatolarni mustaqil aniqlash va mulohaza yuritish imkonini beradi; bu esa til o'rganish jarayonida o'zini nazorat qilish va refleksiyaning rivojlan-tiradi"* [3: 384]. Eng muhimi, SI matn uslubini aniqlagach, *"Bu matnda rasmiy uslubga xos so'zlar, rasmiy murojaat formulalari, aniqlik va mantiqiy qat'iyat ustuvor"* yoki *"Matnda badiiy uslub belgisi sifatida obrazli ifoda, metafora va emotsional bayon mavjud"* kabi xulosalarni taqdim etadi. Bunday avtomatik tasnif usuli o'quvchida uslubiy ko'rish qobiliyatini rivojlantiradi, har bir matnning maqsadiga to'g'ri yondashish, uning ruhini anglash va o'z nutqida to'g'ri uslubni tanlash ko'nikmasini shakllantiradi. Shu orqali dars jarayoni yanada jonli va tahliliy tusga kirib, o'quvchi nutqi qalin qoidalar kitobiga emas, balki faol tafakkur va ijodiy anglashga tayana boshlaydi.

**SI nutqdagi kamchiliklarni
"ayb" sifatida emas,
to'g'rilash mumkin bo'lgan
tabiiy jarayon sifatida
baholaydi va o'quvchini
rag'batlantiruvchi,
mulohazaga chorlovchi
izohlar bilan qo'llab-
quvvatlaydi.**



To'g'ri talaffuz va orfoepik me'yorlarga rioya qilish adabiy nutq madaniyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Lekin an'anaviy dars usullari bilan o'quvchida to'g'ri talaffuz va ovoz texnikasini shakllantirish, ayniqsa, singarmonizm, urg'u, unli-undoshlarning nutqdagi uyg'unligi, sheva ta'sirini kamaytirish oson emas. Sun'iy intellekt bu yo'nalishda keng imkoniyatlar ochib beradi: o'quvchining ovozli nutqini tinglab, talaffuzdagi xatolarni tezkor aniqlaydi, qoidalar asosida to'g'ri variantni taklif etadi, boshqa misollar bilan solishtiradi va lug'at asosida nutqni shevalar ta'siridan tozalashga yordam beradi. Shuningdek, talaffuzni to'g'rilash jarayonida oddiy tahrir bilan cheklanmay, qo'shimcha mashqlar, audio trenajorlar, nutq tezligini to'g'rilash bo'yicha tavsiyalar, to'g'ri intonatsiya bilan o'qish namunasini ham taqdim etadi.

Orfoepik me'yorlarni o'rgatishda o'quvchi nutqini jonli baholash mumkin: SI audio yozuvdagi so'zlarni matn shakliga o'tkazib, imlo hamda nutq me'yorlari asosida tahlil qiladi, o'quvchining qaysi tovushlarda adashishi, qaysi joyda urg'uni noto'g'ri qo'ygani aniq ko'rsatadi. Bu esa nutq xatolarini interfaol tarzda ko'rish, anglash va puxta tuzatish imkoniyatini beradi. Eng muhimi, SI nutqdagi kamchiliklarni "ayb" sifatida emas, to'g'rilash mumkin bo'lgan tabiiy jarayon sifatida baholaydi va o'quvchini rag'batlantiruvchi, mulohazaga chorlovchi izohlar bilan qo'llab-quvvatlaydi.



O'quvchi fikrini yozma shaklda to'g'ri, mazmunli va ta'sirli bayon qila olishi savodxonlikning yana bir muhim mezonidir. Insho, ijodiy matn yoki ma'lumotnoma yozishda fikr izchilligi, uslub tanlanishi, lug'at boyligi, jumla tarkibi va matn mantig'i o'quvchidan shunga muvofiq yondashuvni talab qiladi. Sun'iy intellekt bu jarayonda nutqiy xatolarni ko'rsatish, matn tuzilishini tahlil qilish, uslubni belgilash, ma'no qatlamini ochish va ayrim so'zlarning o'rniga optimal variantlar taklif etish bilan yozma bayon madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. SI yordamida o'quvchi inshoda tarqoq fikrlarni bir markazga jamlash, ijodiy matnda obrazlilik va emotsional ifoda usullaridan foydalanish, ma'lumotnomada esa rasmiy uslubga amal qilishni o'rganadi. Demak, sun'iy intellekt yozma nutqni shakllantirishda oddiy yordamchi emas, balki fikrlash tizimini tartibga soluvchi, uslubni tozalovchi va matn madaniyatini yuksaltiruvchi metodik vositaga aylanadi.

Matn kirish, asosiy qism va xulosa tartibida mantiqiy izchillikka ega bo'lsa, o'quvchining fikri aniq va ta'sirli ifodalanadi. Sun'iy intellekt yordamida matn tuzilishini tahlil qilish bu vazifani osonlashtiradi. SI kirish qismida mavzuning o'rnini, maqsadi va asosiy tavsifini to'g'ri belgilash uchun tavsiyalar beradi. Masalan, mavzuga oid qisqa ta'rif, muqaddima va asosiy pozitsiyani qanday ifodalash zarurligini ko'rsatadi. Asosiy qismda esa SI fikrlarni tartibga soladi, dalillar zanjirini aniqlaydi, har bir xatboshining vazifasi va ma'no markazini

belgilab beradi, ortiqcha takror va mantiqiy uzilishlar bo'lsa, ularni aniqlab, qisqartirishni taklif qiladi.


Xulosa qismida SI matnning umumiy g'oyasini yana bir bor jamlash, asoslangan pozitsiyani qayta e'tirof etish, kelgusi fikr yo'nalishini ko'rsatish yoki umumlashtiruvchi gaplarni shakllantirish bo'yicha aniq tavsiyalar beradi. Masalan, agar o'quvchi xulosada yuqoridagi fikrlarni takrorlab, yangi mazmun qo'shmagan bo'lsa, SI buni semantik jihatdan zaif deb baholab, *"mazmunining umumiy ahamiyatini ochish"*, *"asosiy xulosani lo'nda bayon qilish"*, *"fikrning oqibati yoki amaliy foydasini ko'rsatish"* kabi takliflarni beradi. Natijada o'quvchi matnni qismlarga bo'lishni emas, balki har bir qismning vazifasini anglaydi: kirish –

Aniq ta'riflar, mantiqiy izchillik va dalillarga tayanish ilmiy uslubga xos. Publitsistik uslubda ezgu g'oya, jamoatchilikka murojaat, ta'sir kuchini oshirish maqsadida emotsional ruh ustunlik qiladi. Badiiy uslubda esa obraz, tasvir, metafora, qiyoslash va his-tuyg'ular asosiy vositaga aylanadi. Sun'iy intellekt vositalari o'quvchining matnini tahlil qilib, uning qaysi uslubga yaqin ekanini aniqlaydi va shu uslubning talablari asosida matnni qayta shakllantirish yuzasidan tavsiyalar beradi. Ushbu tavsiyalar yordamida o'quvchi muayyan uslubning o'ziga xos leksik-semantik jihatlarini o'zlashtiradi.

Sun'iy intellektdan foydalanish madaniyati deganda akademik halollik, ma'naviy mas'uliyat, intellektual poklik va ijodiy yondashuv tamoyillariga amal qilish anglashiladi. Shu etika asosida qo'llanganda SI o'quvchining lingvistik kompetensiyalarini boyitadi, ona tiliga mehr uyg'otadi, nutqini ravonlashtiradi, til sezgirligini oshiradi, eng muhimi, o'z ustida ongli ishlashga odatlantiradi.

yo'naltirish va asos berish, asosiy qism – dalil-lash va tahlil, xulosa – umumiy xulosa va mazmun ildizini aks ettirish. SI bu jarayonda loyihalash, tahlil, tuzatish va takomillashtirish vositasi sifatida ishlaydi, o'quvchining insho yoki ijodiy matn tuzish ko'nikmasini algoritmli tahlil orqali mus-tahkamlaydi.

Matn uslubini to'g'ri tanlash va vaziyatga moslab uni o'zgartirish til madaniyatining yuqori darajasi-ga xos ko'nikma hisoblanadi. Ma'lumotnoma, ras-miy murojaat yoki hisobot kabi hujjatlarda rasmiy uslub ustuvor bo'lib, jumla tuzilishi aniq, mazmun qat'iy, atama va faktlarga boy bo'lishi talab etiladi. Badiiy yoki ijodiy tavsifiy matnda esa obrazli ifoda, emotsional ruh, his-tuyg'uni berish, tasviriy vosi-talardan yetarlicha foydalanish asosiy mezonidir. Sun'iy intellekt shu ikki uslub o'rtasidagi o'tishi-ni o'rganishda o'quvchiga yordam beradi: ma'lu-motnomani tahlil qiladi, uning asosiy mazmunini saqlagan holda iboralar, jumla tuzilishi va obrazli ifodalar orqali ijodiy uslubda qayta shakllantirish bo'yicha takliflar bera oladi.



Har bir o'quvchining nutqiy savodxonligi, grammatik bilim darajasi va ijodiy fikrlash ko'nikmasi bir-biridan farq qiladi. Shu bois dars barchaga bir xil uslubda emas, individual yondashuv asosida tashkil etilganda samarali bo'ladi. Sun'iy intellekt asosidagi avtomatik diagnostika shu ehtiyojdan kelib chiqib, o'quvchining yozma matni, nutqiy ifodalari yoki grammatik topshiriqlarini tahlil qiladi va uning kuchli hamda zaif tomonlarini aniqlaydi. Shu asosda har bir o'quvchi uchun shaxsiy ta'lim trayektoriyasini taklif etadi: kimga orfografiya bo'yicha mashqlar kerak, kimda intonatsiya, uslubiy tahlil yoki morfologiya sohasida to'ldirish zarurligi aniqlanadi. "Adaptiv ta'lim tizimlari kompyuter algoritmlari va sun'iy intellekt vositalarini qo'llab, o'quvchining ko'nikma, bilim darajasi va o'rganish tempini tahlil qiladi, shu asosda har bir o'quvchiga mos jadval, ta'lim yo'li va mashqlarni taqdim etadi" [4: 14]. Natijada dars shakli, mashqlar tizimi va baholash usullari avtomat tarzda o'quvchining ehtiyojiga moslashadi; o'quvchi esa nutq madaniyatini o'z imkoniyati va salohiyat darajasiga ko'ra tinimsiz takomillashtirib borish imkoniyatiga ega bo'ladi.


Nutq xatolarini aniqlash faqat imlo yoki grammatik xato topish emas, balki fikrning yaxlitligi, uslub tozaligi, mantiqiy izchillik va jumla qurilishidagi nuqsonlarni ham qamrab oladi. Sun'iy intellekt bu jarayonni ancha soddalashtiradi: o'quvchi matnini tahlil qilib, kamchiliklarni avtomatik tarzda belgilaydi, qaysi me'yorlar buzilganini aniq ko'rsatadi va ularni bartaraf etish uchun maqsadli tavsiyalar beradi. Masalan, SI jumla ichidagi ortiqcha so'zlarni ajratib, "fikrni lo'nda ifodalash", "jumla tarkibini qisqartirish", "mantiqiy aloqani kuchaytirish"ni taklif etadi. Agar o'quvchi nutqida sheva ta'siridagi talaffuz, uslubiy og'irlik yoki noto'g'ri qurilgan sintaktik modellar uchrasa, SI ularni ham aniqlab, "adabiy variant", "me'yoriy sinonim", "muvofig fe'l shakli" yoki "mantiqiy bog'lovchi vosita"ni taklif qiladi. Shu orqali o'quvchi o'z xatosini shunchaki ko'rmaydi, balki uning sababini anglaydi, qanday tuzatish kerakligini bilib oladi va eng asosiysi lingvistik qonuniyatni ongli qabul qiladi.

Shu nuqtayi nazardan sun'iy intellektni matn to'liq tayyorlab berish vositasi emas, balki tilni o'rganish jarayonida maslahatchi, yo'l ko'rsatuvchi va tahlilchi sifatida ko'rish zarur. SI o'quvchining o'rniga fikrlamaydi, yaratmaydi, anglamaydi. Agar o'quvchi o'z fikri, izlanishi, tajribasi va mehnati o'rniga sun'iy intellektga suyansa, nutqiy savod, fikrlash qobiliyati, mustaqil pozitsiya va shaxsiy dunyoqarashdan mahrum bo'ladi. O'quvchi avval o'zi fikrlaydi, matn o'zi yozadi, topshiriqni o'zi bajaradi, keyin Sidan xatolarni aniqlab berish, mazmunni boyitish, mantiqiy tuzilishni yaxshilash yoki uslubiy takliflar berishini so'rsa, bu uning rivojlanishiga yordam beradi. "Generativ SI vositalari talabalarni refleksiya bilan bog'liq o'rganishga jalb etadi, ularning fikrlashi, tanqidiy va mustaqil tahlil qobiliyatini rivojlantiradi" [5].

SI o'qituvchining o'rnini bosuvchi emas, uning faoliyatini boyituvchi, tahlilni yengillashtiruvchi yordamchi vositadir. Unga ortiq suyanib qolinsa, ta'lim jarayonida jonli muloqot, tarbiyaviy ta'sir va shaxsiy namuna kabi muhim omillar zaiflashadi.

Demak, sun'iy intellektdan foydalanish madaniyati deganda akademik halollik, ma'naviy mas'uliyat, intellektual poklik va ijodiy yondashuv tamoyillariga amal qilish anglashiladi. Shu etika asosida qo'llanganda SI o'quvchining lingvistik kompetensiyalarini boyitadi, ona tiliga mehr uyg'otadi, nutqini ravonlashtiradi, til sezgirligini oshiradi, eng muhimi, o'z ustida ongli ishlashga odatlantiradi.

Sini ona tili ta'limiga tatbiq etishning muayyan cheklov va zaifliklari ham bor. Avvalo, SI vositalari noto'g'ri yoki nazoratsiz qo'llanilganda o'quvchida nutqiy tafakkur, ijodiy yozish ko'nikmasi va lingvistik tahlil qobiliyati pasayib borish xavfi yuzaga keladi. Bu esa ona tili ta'limining asosiy maqsadlariga ziddir.



Ikkinchidan, sun'iy intellektning tilni tahlil qilish imkoniyatlari cheklangan hollarda milliy tilning uslubiy nozikliklari, madaniy ma'no qatlamlari, badiiy ifoda vositalari va kontekstga bog'liq ma'nolar to'liq qamrab olinmasligi mumkin. Ayniqsa, adabiy nutq, badiiy obraz, ifoda uslubi yoki milliy koloritni talab qiladigan matnlarda SI takliflari ba'zan yuzaki, qoliplashgan yoki usluban g'arib bo'ladi. Bu esa o'quvchini ijodiy erkinlikdan uzoqlashtiradi.

Uchinchidan, SI asosidagi avtomatik tahlil vositalari barcha xatolarni mutlaqo to'g'ri aniqlaydi, degan tasavvur ham shartli. Ba'zan sun'iy intellekt nutqiy variantlarni xato sifatida baholaydi yoki uslubiy imkoniyatni qoida buzilishi sifatida talqin qiladi. Shu bois SI natijalarini mutlaq haqiqat sifatida qabul qilish o'quvchini ham, o'qituvchini ham noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

To'rtinchidan, sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida akademik halollik masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Plagiat, tayyor matndan foydalanish, soxta manbalarga tayanish yoki intellektual mehnatni mashinaning bajarishi o'quvchining ma'naviy javobgarligini susaytiradi. Bu esa ona tili darslari orqali shakllantirilishi lozim bo'lgan so'zga ehtirom, fikr mas'uliyati va nutq pokligi tamoyillariga zid keladi.

Nihoyat, sun'iy intellektga ortiqcha suyanish o'qituvchining pedagogik roli pasayib ketishiga olib keladi. SI o'qituvchining o'rnini bosuvchi emas, uning faoliyatini boyituvchi, tahlilni yengillashtiruvchi yordamchi vosita sifatida qo'llanilmasa, ta'lim jarayonida jonli muhoqot, tarbiyaviy ta'sir va shaxsiy namuna kabi muhim omillar zaiflashadi.

Tadqiqot xulosalariga tayangan holda ona tili ta'limiga sun'iy intellekt imkoniyatlarini tatbiq etish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- SI-mashqlar to'plamini shakllantirish: darslik mavzulari asosida SI yordamida morfologiya, sintaksis, uslubiy tahlil va adabiy til me'yorlariga oid interfaol mashqlar bazasini yaratish;

- avtomatik tahlil platformalarini joriy qilish: o'quvchi yozgan matnni grammatika, uslub, lug'at boyligi va mantiqiy qurilish nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan maxsus SI platformasidan foydalanish;

- raqamli til trenajorlarini ishlatish: fe'l zamonlari, kelishik shakllari, so'z turkumlari, uslub transformatsiyasi va insho tuzilishi bo'yicha SI asosidagi avtomat mashq va trenajorlarni dars amaliyotiga joriy etish;

- "O'qituvchi – o'quvchi – SI" hamkorlik modelini shakllantirish: Sini o'qituvchi o'rniga emas, balki tahlilchi fasilitator sifatida qo'llash; o'qituvchi yo'naltiradi, SI tahlil qiladi, o'quvchi tadqiq qiladi;

- darslik mavzulariga mos SI-senariylar tayyorlash: darsliklardagi mavzular bo'yicha matn tahlili, uslubni to'g'ri tanlash, xatoni aniqlash va tuzatish, insho tuzilishi kabi yo'nalishlarda SI bilan integratsiyalangan metodik senariylar ishlab chiqish;

- SI vositasida raqamli madaniyatni tarbiyalash: manbani tekshirish, plagiatdan qochish, soxta ma'lumotni ajratish, salbiy matndan himoya va fikr mas'uliyati kabi raqamli odob qoidalariga rioya qilish madaniyatini shakllantirish;

- bosqichma-bosqich joriy etish mexanizmini ishlab chiqish: SIDan avvalo matn tekshirishda foydalanish, keyin mavzular bo'yicha SI-mashqlar bazasini yaratish, so'ngra o'qituvchilar uchun SI metodist kurslarini tashkil etish va individual ta'lim trayektoriyasi modelini shakllantirish;

- o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish: SI imkoniyatlarini bilish, uning javoblarini tanqidiy tahlil qilish, axloqiy me'yorlarga amal qilish va sun'iy intellekt bilan darslarni loyihalash ko'nikmasini rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Heffernan N., Heffernan C. The ASSISTments Ecosystem: Building a Platform that Brings Scientists and Teachers Together for Minimally Invasive Research on Human Learning and Teaching // International Journal of Artificial Intelligence in Education, 2014. Vol. 24(4). – P. 470–497.
2. Zhang J., Zhu C., Zhang Z. SI-powered language learning: the role of NLP in grammar, spelling, and pronunciation feedback // Applied and Computational Engineering, 2024. Vol. 102. №1. P. 18–23.
3. Семёнкина И.А., Прусакова П. В. Применение инструментов искусственного интеллекта в преподавании иностранного языка: теоретический обзор // Philology. Theory & Practice, 2025. №1. – С. 384–392.
4. Максимова М.В., Фролова О.В., Этүев Х.Х., Александрова Л.Д. Адаптивное персонализированное обучение в электронной информационно-образовательной среде: модель для вуза // Informatics and Education, 2023. Т. 38. №4. – С. 14–27.
5. Yuan B., Hu J. Generative SI as a Tool for Enhancing Reflective Learning in Students // arxiv, 2024. – Article ID 2412.02603.
6. Кондаков А.М. Искусственный интеллект как фактор трансформации образования: дидактические свойства и этические основания // Pedagogika, 2024. №2. – С. 58–67.
7. Иванов С.М. Искусственный интеллект в учебно-языковой рефлексии: методические подходы. // Педагогика и цифровое общество, 2023. №4. – С. 118–130.